



UDK: 631.52+631.6+633.11+633.3

ARPA NAV NAMUNALARINING OZIQABOPLIK KO'RSATKICHLARI

*R. Tuyg'unov, tayanch doktorant –
Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti*

Annotatsiya: Samarqand viloyatining sug'oriladigan yerlarda arpa nav namunalari o'rganilib, ularga har tomonlama baho berildi, ulardan mahsuldor, hosildor, yotib qolishga chidamli, noqulay tashqi muhit omillariga chidamli tezpishar hosildorligi yuqori, kasalliklarga va yotib qolishga chidamli 9 ta nav namunalari tanlab olindi.

Kalit so'zlar: Arpa, seleksiya, ko'p qatorli va ikki qatorli, nav va namuna, kolleksiya, boshqoq, boshqoqcha, o'simlik bo'yi, o'suv davri, mahsuldor poyalar, hosildorlik.

Kirish. Bugungi kunda dunyoda aholi sonining muttasil ko'payib borayotganligi insoniyatning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, mamlakatimizda ham mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlash, hosildorlik va manfaatdorlikni yanada oshirish, sohaga ilm-fan yutuqlari hamda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish dolzarb masaladir. O'zbekistonda oziq-ovqat xavsizligini ta'minlash orqali aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini to'la qondirish oziq-ovqat bozoridagi barqarorlikni ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Alohida ahamiyatga ega donli ekinlardan biri bu – arpa hisoblanadi. Kuzgi arpa muhim yem-xashak, oziq-ovqat va texnikaviy ekin. Undan oziq-ovqat va farmatsevtika sanoati uchun xom ashyo olinadi. Arpaning doni xushta'mlik sifatleri va chorva mollari hamda parrandalar uchun yuqori oziqaviy qiimmatga ega konsentrlangan oziqa sifatida ajralib turadi. Arpa ayniqsa go'sht uchun bo'rdoqiga boqilayotgan cho'chqalar uchun qiimmatli oziqa hisoblanadi.

Arpa o'simligida oziqaboplik ko'rsatkichlari donida oqsil va aminokislotalar saqlashi bilan aniqlanadi. Arpa donidagi oqsil miqdori ekinning naviga, ekish muddatiga, yetishtirilayotgan mintaqasiga, shuningdek tabiiy iqlim sharoitlarga qarab o'zgarib turadi. Arpa donining sifati ko'p jihatdan navning irsiy xususiyatlariga ham bog'liq.



A.Ya.Trofimovskaya, M.V.Lukyanovalarning ta'kidlashicha don sifatidagi farq navning biologik xususiyatiga, uning tashqi muhit sharoitiga moslashganligiga bog'liq. Nav yetishtirish sharoitiga qanchalik moslashgan bo'lsa, donning kimyoviy tarkibi shunchalik kam darajada o'zgaradi. Arpa doni tarkibida oqsil va lizin saqlash uning ekologo-geografik kelib chiqishi bilan bog'liq. Bir muncha past miqdorda oqsil saqlash Yevropa kabi yumshoq iqlimli, seryog'in mamlakatlar arpa navlariga tegishli.

Sug'oriladigan yerlarda arpa navlarining oqsil saqlashi ob-havo sharoiti va yetishtirish agrotexnikasiga bog'liq ravishda o'zgarishi aniqlandi.

Bazi bir olimlarning takidlashicha sug'oriladigan yerlarda don tarkibidagi oqsil miqdori lalmi yerlarga nisbatan birmuncha kamayadi.

Lalmi yerlarda yuqori harorat va nam yetishmovchiligi o'simlikda azot moddalarining ko'payishiga yordam beradi, sug'oriladigan yerlarda esa nam yetarli sharoitda uglevod va yog' yig'ilish ustun turadi.

Arpa ekini uning tarkibidagi oqsil miqdoriga qarab turli maqsadlarda ishlatiladi. Shuning uchun arpaning sifatini aniqlaydigan eng muhim belgilardan biri uning tarkibidagi oqsil miqdoridir.

Samarqand Davlat Veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Agrotexnologiya fakulteti "O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish" kafedrasida laboratoriyasida mavjud Granolyser qurulmasida don tarkibidagi oqsil miqdori o'rganildi. (8-rasm)



8-rasm. Don tarkibidagi oqsil miqdorini o'rganish.

Standart Ixtiyor navining oqsil saqlashi bo'yicha o'rtacha 13,4 % bo'ldi. O'rganilgan arpa nav va namunalarining doni tarkibida oqsil miqdori standart navga nisbatan 0,4-2,8% yuqori bo'lgan namunalar borligi kuzatildi.

Xulosa. Don sifati bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan Unumli arpa, Adir 2022, Baxorkor, Sharof 100 2022 nav namunalari tanlab olindi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Yalgashev, A., & Murodova, D. (2023). ZAMBURUG 'LI KASALLIKLAR SARIQ VA QO 'NG 'IR ZANGA CHIDAMLI NAV NAMUNALAR. PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION, 19(23), 134-137.
2. G'aybullayev, G. U. S., Xayitov, A. B., & Yalgashev, A. F. (2023). KUZGI YUMSHOQ BUG'DOYNING QISHKI SOVUQLARDAN JAROHATLANISHI BA UNI ANIQLASH. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 867-871.
3. Mamatqulov, T., Xoldorov, A. A., & O'sarov, Z. E. (2023). LALMIKOR DEHQONCHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTIDA ARPA SELEKSIYASINING ASOSIY NATIJALARI. PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION, 19(23), 43-47.
4. Aliqulova, A. M., Rustamov, N. S., Ro'ziyeva, M. R., Ziyadullayeva, G. Z., & Musirmanova, D. J. (2023). ARPA (HORDEUM) KOLLEKSIYASINING YANGILANGAN REPRODUKSION GERMOPLAZMASIDA EKISH SIFATLARINING TAHLILI. *Iqlimning davom etayotgan o'zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligiga erishish uchun agrobiologik xilma-xillikni o'rganish, saqlash va barqaror foydalanish muammolari*, 17-21.
5. Shukurovna, Q. U. (2023). YUMSHOQ BUG 'DOY NAV VA TIZMALARINI SELEKSIYA KO 'CHATZORIDA QIMMATLI BELGI XUSUSIYATLARINI O 'RGANISH. *AGROINNOVATSIYA*, 1(1), 46-49.
6. Туйғунов, Р. (2023). ЗАРАФШОН ВОҲАСИДА АРПА КОЛЛЕКЦИЈАСИНИ ЎРГАНИШ НАТИЖАЛАРИ. PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION, 19(23), 126-131.
7. Tuyg'unov, R. B. (2023). SUG 'ORILADIGAN YERLARDA OZUQABOP VA HOSILDOR ARPA NAVLARINI TANLASH. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(19), 206-209.
8. Abdulloyeva, M. S., & Tuyg'Unov, R. B. (2022). SUG'ORILADIGAN YERLARDA ARPANING ERTAPISHAR VA YOTIB QOLISHGA CHIDAMLI NAV NAMUNALARINI TANLASH. Academic research in educational sciences, (Conference), 229-235.
9. Norboy o'g'li, A. S., Farxodovich, Y. A., & Zokirovna, I. M. (2024). YUMSHOQ BUG 'DOY DURAGAYLARNING MIQDORIY BELGI VA XUSUSIYATLARINI, IRSIYLANISH DARAJASI. Лучшие интеллектуальные исследования, 16(1), 86-91.
10. Farxodovich, Y. A., Zokirovna, I. M., & Ziyedullayevich, S. X. (2024). YUMSHOQ BUG'DOY JAHON KOLLEKSIYASI NAV NAMUNALARINI QISHGA CHIDAMLILIGI. Лучшие интеллектуальные исследования, 15(3), 15-22.
11. Uv, Q., & Abduxolikova, B. (2023). SELEKSIYA KO'CHATZORIDA O'RGANILGAN YUMSHOQ BUG'DOYNING NAV VA TIZMALARINING QIMMATLI BELGI XUSUSIYATLARI. PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION, 19(23), 85-88.